

KONFERENSIYALAR.UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**V RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2025

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiylar.uz>



KONFERENSIYALAR.UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyul

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 5-son (iyul, 2025-yil). – 107 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 22-iyul

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lrim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni organ bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Muxsinova Musallamxon

TABIY FANLARDA HAYOTIY MUAMMOLAR YECHIMI
(FIZIKA VA MATEMATIKA ASOSIDA) 5-7

TEXNIKA FANLARI

Baxriddinov Nodirbek

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA INNOVATION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN
QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI: AQSH VA YEVROPA TAJRIBASI 8-11

TARIX FANLARI

To'ychiyeva Dilnoza

ZOMIN TUMANINING IQTISODIY TARIXI XUSUSIDA (2013-2024 YILLAR) 12-19

Horov Shukrat

ISTORICHESKIJ ANALIZ FORMIROVANIE EKOLOGICHESKOJ KULTURY SREDI
MOLODEZHI 20-25

Bazarbayeva Nilufar

O'ZBEK MILLIY HUNARMANDCHILIGI TARIXI XUSUSIDA 26-29

IQTISODIYOT FANLARI

Qo'chqarov Baxtiyor

KICHIK BIZNES SUBYEKTALARIDA AYLANMA MABLAG'LARDAN FOYDALANISHNI
TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY FAOLLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI 30-34

Kayyibekov Parahat

COVERSHENSTVOWANIE UPRAVLENIA AUTOMOBILNYMI TRANSPORTNYMI
USLUGAMI V UZBEKİSTANE 35-41

Ibragimov Jakhongir

SANOAT KORXONALARIDA YASHIL INNOVATSİYALARINI JORİY QILISHGA EKSTERMAL IQLIM
O'ZGARİSHLARI TA'SİRİNİ BAHOLASH 42-45

FALSAFA FANLARI

Mamadiyarova Malika

GLOBAL O'ZGARİSHLAR SHAROITIDA OILAVIY QADRIYATLAR TRASFORMATSIYASI 46-48

Ro'ziyev Maqsud

ABULHASAN BAXMANYOR MA'NAVIY MEROSIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALALARI 49-52

FILOLOGIYA FANLARI

Tursinbaev Ilham

BOLALAR POEMALARIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI 53-57

Pulatjonova Muxtasar

HOW DO UZBEK LEARNERS USE DISCOURSE MARKERS IN ENGLISH SPEAKING: A LEARNER
CORPUS ANALYSIS 58-60

Abdulxayeva Nodirabegim

TRANSLATION OF REALIA IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION 61-63

Absalomova Feroza

KOREYS TILI O'RGATISHDA O'QUVCHI MOTIVATSİYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR:
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY KONTEKST 64-68

GEOGRAFIYA FANLARI

Nazirov Mirjalol

FARG'ONA VILOYATIDAGI MIGRATSION JARAYONLARNING RETROSPEKTIV TAHLILI VA
HUDUDIY DEMOGRAFIK JARAYONLARGA TA'SIRI 69-71

YURIDIK FANLARI

Tog'onova Jemala

MEDIATSIYADA ADVAKATNING RO'LI 72-76

Shomurodov Sanjar

SUN'YI INTELLEKT MAHSULOTLARINI MUHOFAZA QILISHDA HUQUQIY MUVOFIQLIK
MASALASIDA YAGONA XALQARO KONVENSIYA ZARURATI 77-80

Qilichev Nosirbek

SPORT TAVAKKALCHILIGI – QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLAT
SIFATIDA 81-84

Xolmo'minova Barchinoy

DAVLAT PENSIYALARINING TURLARI VA ULARNI TAYINLASHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI 85-90

PEDAGOGIKA FANLARI

Таджibaева Альбина

РЕФЛЕКСИВНАЯ ПРАКТИКА В ОБУЧЕНИИ: ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И СТРАТЕГИИ
ФОРМИРОВАНИЯ ТРАСК 91-96

Собирова Гулибарно

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ
РУССКОГО ЯЗЫКА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ СРЕДЫ 97-101

TIBBIYOT FANLARI

Numonjonov Asrorjon, Mansurova Nargiza

ICHKI MUHIT REZONANSINING MIGREN TRIGGERLARIGA TA'SIRI: TIZIMLI VA ICHAK
FAKTORLARINING INTEGRATSIYASI 102-104

PSIXOLOGIYA FANLARI

Kurbanov Munis

KASBIY IDENTIFIKATSIYA JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH 105-107

SANOAT KORXONALARIDA YASHIL INNOVATSIALARNI JORIY QILISHGA EKSTERMAL IQLIM O'ZGARISHLARI TA'SIRINI BAHOLASH

Ibragimov Jakhongir

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat korxonalarida yashil innovatsiyalarni joriy qilishga ekstremal iqlim o'zgarishlari ta'sirini mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan tadqiqotlarni qiyosiy tahlil asosida baholanilgan. Shuningdek, ushbu jarayonga ta'sir qiluvchi omillar ularni ta'sirini baholash bo'yicha amalga oshirilgan tahlillarni tadqiq qilish asosida aniqlanilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, sanoat korxonalar, yashil innovatsiya, patent, iqlim o'zgarishlari, qurg'oqchilik, toshqin.

ASSESSMENT OF THE IMPACT OF EXTREME CLIMATE CHANGE ON THE IMPLEMENTATION OF GREEN INNOVATIONS IN INDUSTRIAL ENTERPRISES

Ibragimov Jakhongir

Abu Rayhon Beruniy Urgench State University, basic doctoral student

Annotation. In this paper assessed impact of extreme climate change on implementation of green innovations in industrial enterprises based on a comparative analysis of studies conducted in this area. Also, identified factors influencing this process based on analysis conducted to assess their impact.

Key words: industry, industrial enterprises, green innovation, patents, climate change, drought, flood.

DOI: <https://doi.org/10.47390/Ydif-Res5/No-08>

Sanoat taraqqiyoti hisobiga iqlim o'zgarishlarida keskinliklarni vujudga kelishi proqnoz qilinmoqda [9]. Buning oqibatida kelgusi davrda yo'qotishlar hamda iqtisodiy faoliyat uchun tavakkalchiliklarni kelib chiqishi kutilmoqda. Shu sababdan sanoat korxonalari faoliyatini tashkil qilish va sanoat taraqqiyotini ta'minlashda yuqorida ta'kidlangan xavflarni hisobga olgan holda moslashuvchanlik va chidamlilagini ta'minlash masalasiga e'tibor qaratishlari talab qilinadi[1,3,15].

Bu esa sanoat korxonalarini modernizatsiyalash va innovatsiyalarni ishlab chiqishda salbiy ta'sirlarni kamaytirishga yetarli darajada e'tibor qaratilmayapti [7]. Buning asosiy sababi bu kabi inqirozlar ko'p tarmoqli, mukammal yangi avlod texnologiyalarini shakllantirishni talab qilishi hisoblanadi [10]. Shuningdek, ekstremal o'zgarishlarning yashil innovatsiyalarga qisqa va o'rta muddatli ta'sirlarini tadqiq qilish masalalarini ham talab darajasida emas. Faqat ma'lum yo'nalishlardagi tadqiqotlarda tabiiy ofatlarni innovatsiyalarga ta'siri tadqiq qilingani holda ko'pincha mamlakatlar miqyosida amalga oshirilmoqda [4,13,17,18]. Aynan tabiiy ekstremal o'zgarishlarning sanoat korxonalaridagi yashil innovatsiyalarga ta'siri va moyilligi juda kam o'rganilgan.

Italiyalik olimlar yuqorida keltirilgan muammoni sanoat korxonalarining katta guruhida tadqiq qilish asosida keltirib o'tilgan bo'shliqni to'ldirishga harakat qilishgan [11]. Buning uchun 2007-2020 yillar mobaynida sanoat korxonalarida tadqiqotlar o'tkaziladi va ular natijalari tadqiqi qilingan. Tadqiqot natijalari iqlim o'zgarishlarini qisqa va o'rta muddatda korxonalardagi yashil innovatsiyalarga salbiy ta'sirni ko'rsatgan. Tadqiqotni amalga oshirishda bir qator gipotezalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular tabiiy ofatlar korxonalar yashil innovatsion faoliyatiga ta'sir qiladi deb qarashadi. Empirik tadqiqotlar natijalariga ko'ra

ta'sirini ijobjiy yoki salbiy ekanligi haqida bahsli holatni mavjudligi mazkur gipoteza uchun asos bo'lgan. Natijada mazkur tadqiqot natijalarini tadqiq qilish asosida quyidagi gipotezalarni ilgari surishgan:

H₁: Ekstremal iqlim o'zgarishlarini sanoat korxonalari yashil innovatsiyalarni joriy qilish moyilligiga ta'siri aniq emas. Ya'ni ta'sir ijobjiy yoki salbiy bo'lisi mumkin;

H₂: Ekstremal iqlim o'zgarishlari ta'siri korxonalarni tarmoqqa tegishliligiga qarab farqli natijalar beradi.

H_{3.a}: Ta'sir ofatning turi hamda uni sodir bo'lish vaqtiga bog'liq bo'lishi mumkin.

H_{3.b}: Tabiiy hodisalar korxonaning yashil va boshqa innovatsiyalarni joriy qilish moyilligiga farqli ta'sirga ega.

Tadqiqotchilar mazkur yuqorida keltirilgan gipotezalarni tekshirish uchun natijaviy omil vazifasini bajaruvchi yashil patentlar kutilayotgan soniga ta'sir qiluvchi omillar va boshqa potentsial determinantlar ta'sirini nochiziqli funksiyadan foydalangan holda baholash masalasi qarab chiqishgan. H₁ gipotezani tekshirish uchun 2007 yildan 2020 yilgacha Italiyadagi sanoat korxonalari benchmark tenglamasi quyidagicha shakllantirilgan:

$$E(GREENPAT_{it}|X_{it}) = \exp\left(\alpha + \beta * EVENT_{pt} + \varphi * Z_{it} + \sum_t \gamma_t T_t + \sum_s \delta_s S_s\right)$$

Bu yerda: GREENPAT – korxonalar darajasidagi yashil innovatsiyalar bo'yicha olingan patentlar soni (birlik); EVENT – korxona joylashgan hududda bir yil mobaynida iqlim bilan bog'liq ekstremal holatlar (qurg'oqchilik, ekstremal harorat, toshqin, muzliklar erishi, ommaviy harakat, bo'ron va yong'in) soni (birlik);

Ekstremal o'zgarishlarni innovatsion faoliyatga ta'sirida vaqt bilan bog'liqligi, boshqacha aytganda kechikish [18] mavjudligini hisobga olib, ularning kechikkan ta'sirlarini baholash masalasiga ham e'tibor qaratilgan. Z vektori sifatida keltirilgan omillar korxonaning yashil innovatsiyalarni joriy qilish moyilligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan nazorat vositalarini ifodalab, korxonaning o'ziga xos xususiyatlari pul oqimi [5], hajmi [12] hamda faoliyat ko'rsatgan davri[2] kabilarni o'zida jamlaydi. Mintaqaviy joylashuvning o'ziga xos xususiyatlari jon boshiga yalpi ichki mahsulot, aholi zichligi, inson kapitali [6], institutsional sifat indeksi [16] va kredit mavjudligi [13] kabilar asosida qarab chiqilgan. Tarmoqdagi kutilmagan o'zgaruvchanliklar T va S dommi o'zgaruvchilarni kiritish orqali hisobga olingan.

Ikkinci gipoteza Evrostat tasnifi asosida yuqori, o'rta yuqori, o'rta past va past texnologiyali tarmoqlarga tegishli korxonalar asosida qarab chiqilgan.

Uchinchi gipotezaning birinchi qismi H_{3.a} modeldagi EVENT omili EVENTS, ya'ni tabiiy ofatlarni asosi bo'lgan iqlim o'zgarishi indikatorlari, suv tashqi, muzliklar erishi, bo'ron, yong'in va boshqa hodisalar bilan almashtirilgan.

Uchinchi gipotezaning ikkinchi qismi H_{3.b} ni tekshirish uchun yashil bo'lмаган panterlar sonini hisobga olingan.

Yashil innovatsiyalarga ta'sirchanlikni tekshirish uchun amalga oshirilgan tadqiqot natijasi ekstremal hodisalar va korxonalarining qisqa va o'rta muddatli istiqboldagi innovatsion qobiliyati orasida salbiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatgan. Bundan tashqari, keyingi olingan natijalar oldingi ilmiy tadqiqot natijalariga mos keladi, xususan tabiiy ofatlarning energiya bilan bog'liq texnologiyalarning innovatsiyasiga salbiy ta'siri 4 yil davom etishi Zhao va boshqalar [18] tomonidan aniqlanilgan bo'lsa, rekonstruktsiyadagi qisqa

muddatli cheklovlar ofatning salbiy oqibatlarning ahamiyati va doimiyligiga katta ta'sir Hallegatte va Dumas [8] tomonidan ta'kidlangan.

Keltirib o'tilgan natijalar muhim ahamiyatga ega bo'lib iqlim o'zgarishlariga moslashish jarayonlarni osonlashtiruvchi yashil innovatsiyalar, iqlimga zarar yetkazish xususiy biznesda kamroq kuzatilishi aniqlanilgan. Sababi, yashil innovatsiyalar korxonalardan katta miqdordagi investitsiyalarni, hamda noaniqliklar hisobiga vujudga keladigan yuqori xavflarni o'z zimmalariga olishni talab qiladi. Ekstermol iqlim hodisalarining yuqori chastotasi ikkinchi xavf, ya'ni ular hisobiga vujudga keladigan xavfni kuchaytiradi, ya'ni insonlarni jamg'arish bo'yicha qarorlarni qabul qilishda foydani qadrlamaslik tendentsiyasi, yashil texnologiyalarga suboptimal investitsiyalarni olib keladi.

Mazkur holat korxonalarni strategiyalarni ishlab chiqishdagi ehtiyyotkorligini oshirib yangi tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlarni kamaytirishga sabab bo'lishi mumkin [14]. Tadqiqot natijalariga ko'ra innovatsiyalarga to'sqinlik qiladigan uchta asosiy mexanizm mavjud. Bular: xalqaro savdo, investitsiyalash imkoniyatlari hamda inson kapitali. Ya'ni, logistika va transport xarajatlaridagi oshish, savdoning ochiqligiga putur yetkazadi va bu o'z navbatida mahalliy korxonalarni to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hamda texnologiyalar transferidan oladigan foyda normasini pasaytiradi.

Shuningdek, tabiiy iqlim o'zgarishlari va ofatlar investitsion jarayonlar, noaniq daromadlar bilan tavsiflanuvchi ilmiy tadqiqot tashabbuslariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Rivojlanish darajasi past bo'lgan mamlakatlarda tabiiy ofatlar oziq-ovqat, sog'liqni saqlash va ta'lif tizimini jiddiy ta'sir ko'rsatgan holda innovatsion faoliyatni asosi bo'lgan ta'lif bilan bog'liq muammolarni kelib chiqishi va ular uzoq muddatga cho'zilishiga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Antonioli, D., Marzucchi, A., Modica, M., 2022. Resilience, performance and strategies in firms' reactions to the direct and indirect effects of a natural disaster. Networks and Spatial Econ. 22 (3), 541–565.
2. Banerjee, R., Gupta, K., 2021. Do country or firm-specific factors matter more to R&D spending in firms? Int. Rev. Econ. Finance 76, 75–95.
3. ; Casciaro, M., Natoli, F., Petrella, A., 2023. Entry, exit, and market structure in a changing climate. Bank of Italy Temi di Discussione (Working Paper), No. 1418.
4. Chen, Y.E., Li, C., Chang, C.P., Zheng, M., 2021. Identifying the influence of natural disasters on technological innovation. Econ. Anal. Policy 70, 22–36.
5. Cohen, W.M., 2010. Fifty years of empirical studies of innovative activity and performance. Handbook Econ. Innov. 1, 129–213.
6. De Winne, S., Sels, L., 2010. Interrelationships between human capital, HRM and innovation in Belgian start-ups aiming at an innovation strategy. Int. J. Human Res. Manag. 21 (11), 1863–1883.
7. Gries, T., Naud'e, W., 2021. Extreme events, entrepreneurial start-ups, and innovation: theoretical conjectures. Econ. Disasters and Climate Change 5, 329–353.
8. Hallegatte, S., Dumas, P., 2009. Can natural disasters have positive consequences? Investigating the role of embodied technical change. Ecol. Econ. 68 (3), 777–786
9. IEA (2023) Italy Climate Resilience Policy Indicator. <https://www.iea.org/articles/italy-climate-resilience-policy-indicator>.
10. Ionescu-Somers, A., 2020. Entrepreneurs and the COVID-19 crisis disruption: an early temperature check. Retrieved August, 2, p. 2020.

11. Mariarosaria Agostino, Sandro Rondinella, 202. Do climate extreme events stimulate or hinder green innovation? Evidence from the Italian manufacturing sector. *Structural Change and Economic Dynamics*. Volume 73. <https://doi.org/10.1016/j.strueco.2024.12.020>.
12. Mishra, V., 2007. The Determinants of R&D Expenditure of Firms: evidence from a cross section of Indian firms. *Econ. Papers: J. Appl. Econ. Policy* 26 (3), 237–248.
13. Nifo, A., Vecchione, G., 2014. Do institutions play a role in skilled migration? The case of Italy. *Reg Stud* 48 (10), 1628–1649.
14. Okolo, C.V., Wen, J., 2023. Economics of natural disasters and technological innovations in Africa: an empirical evidence. *Environ. Sci. Pollution Res.* 30 (5), 12362–12384.
15. Oliviero, T., Rondinella, S., Zazzaro, A., 2024. Green firms, environmental hazards, and investment. *Sustainability* 16 (2), 542.
16. Rodríguez-Pose, A., Zhang, M., 2020. The cost of weak institutions for innovation in China. *Technol. Forecast Soc. Change* 153, 119937.
17. Wen, J., Zhao, X.X., Fu, Q., Chang, C.P., 2023. The impact of extreme weather events on green innovation: which ones bring to the most harm? *Technol. Forecast. Soc. Change* 188, 122322.
18. Zhao, X., Zheng, M., Fu Zhao, X.X., Zheng, M., Fu, Q., 2022. How natural disasters affect energy innovation? The perspective of environmental sustainability. *Energy Econ.* 109, 105992.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 22-iyul

Mas'ul muharrir:

F.T.Isanova

Texnik muharrir:

N.Bahodirova

Diszayner:

I.Abdihakimov

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

1-jild, 5-son (iyul, 2025-yil). – 107 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiylar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 22-iyul

Barcha huqular himoyalangan.

© Science problems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.